

NAVOIY G‘AZALLARIDA “NIDO” SAN’ATI

Mohidilxon Erkaboyeva

Qo‘qon DPI talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi Alisher Navoiyning g‘azallarida “Nido” san’atining qo‘llanishi haqida fikrlarimiz bayon etilgan.

***Kalit so‘zlar:** Mumtoz, san’at, chaqiriq, undov, lirik qahramon, ko‘ngil, yor, ilohiy ma’rifat, may, ishq.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлены наши мысли об использовании искусства «нидо» в газелях Алишера Навои, ярком проявлении узбекской классической литературы.

***Ключевые слова:** Классика, искусство, зов, восклицание, лирический герой, сердце, душа, божественное озарение, май, любовь*

ABSTRACT

In this article, our thoughts on the use of the art of “Nido” in the ghazals of Alisher Navoi, a bright manifestation of Uzbek classic literature, are presented.

***Keywords:** Classical, art, call, exclamation, lyrical hero, heart, soul, divine enlightenment, may, love.*

Nido sa’nati qadimdan mumtoz shoirlar tomonidan keng foydalanib kelingan she’riy sa’natlardan biri hisoblanadi. "Nido" arab tilidan olingan bo‘lib, "qichqiriq", "chaqiriq", "undov" degan ma’nolarni bildiradi. "Insho yo‘llaridan biri, fikrni ifodalash usuli, o‘y-fikr, xis-tuyg‘u, kechinmalarining kimgadir yoki nimagadir murojaat tarzida bayon etilishi, she’rda undalma qo‘llash. Ya’ni shoir saboga, ko‘ngilga, ma’shuqaga yoki o‘z-o‘ziga murojaat etar ekan, shu orqali o‘z xis-tuyg‘ularini, kechinmalarini bayon qilib oladi. Masalan, Bobur yorga:

*Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag‘i bisyor mushkuldur,-*

tarzida, Mashrab esa:

*Eshit arzimni, ey dilbar, yurak-bag‘rim kabob o‘ldi,
Raqiblar shodumon bo‘ldi nigorimning jafosidin,-*

tarzida murojaat qilib, shu orqali ishq iztiroblari, hijron azoblari bilan bog'liq tuyg'ularni izhor etishni maqsad qiladilar. Aksar xollarda, shoir she'r davomida bayon etgan fikrlar o'z-o'ziga murojaat tarzida xulosalanishi mumkin. Masalan, Navoiy bir maqta'sida:

*Ey Navoiy, barcha o'z uzrin dedi, o'lguncha kuy,
Kim, senga ishq o'ti- o'q ermish azalning qismati,-*

der ekan, o'ziga murojaat qilish orqali "boshdan kechirilgan ishq iztiroblarida xech kim aybdor emas, balki, ishq senga taqdirning bitigidir" degan xulosaga keladi.

Umuman, she'riyatimizda:

*Ey bod, yetkur yora salomim,
Ey sorbon, oxista yur, oromijonim boradur,
Do'stlar, bu kun ajab bir sarviqomat ko'rmisham,
Ey Navoiy, sobit o'lsun shoxi g'oziy davlati,
Ul paridin men nechuk jon eltayinkim, Boburo,
Mashrabo, o'lguncha dargohida maqsuding budur,*

kabi ko'rinishlarda baytlar bitmagan, Nido usuliga murojaat qilmagan shoir deyarli topilmaydi."[1].

Nido sa'nati g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy ijodida ham keng o'rin olgan. "Nido boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg'ulari po'rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o'zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin. Alisher Navoiy lirik qahramonining ichiga bo'lgan saboga murojaat etadi.

*Ey sabo, holim borib sarvi xiromoning'a ayt,
Yig'larimning shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt"[2].*

Quyidagi baytda esa Navoiy Yaratganga murojaat qilib yor husnini idrok qilishni eldan berkitishni so'ragan:

*"Yo rab, ul oy husnining idrokin elga mubham et,
Ko'z bila ko'nglumni ul sirri xafig'a mahram et."[3,1].*

Hazrat Navoiyning yana bir baytida uni Yaratganga unga jabr-u sitam qilganlarni ne deb atashni so'rab murojaat qilgan:

*"Yo rab, ne dey alarniki, miskin Navoiyni
Behushu aqlu bedilu bechora qildilar."[3,2].*

Quyidagi baytlarda Navoiy do'stlariga murojaat qilgan:

*"Ishq otashgohida kul bo'lmisham, ey do'stlar,
Ko'kka har soat kulumni siz dag'i sovurmangiz."[3,3].*

*"Do 'stlar,olam eliga yoru hamdam bo 'lmangiz,
Yor ila hamdam demaykim, oshno ham bo 'lmangiz." [3,4].
"Do 'stlar, mahram deb elga roz ishfo qilmangiz,
Boshingizga yuz balo kuch birla paydo qilmangiz." [3,5].*

Alisher Navoiy oddiy kabutarga murojaat qilib nido sa'natining go'zal namunasini yaratgan:

*"Ey kabutar ,chun damim o 'rtar malak bolu parin,
Sendin o 'lmas ishqikim o 'tin yorg 'a payg 'om etib" [3,6].*

Alisher Navoiy Yaratganning nazargohi deya e'tirof etilgan ko'ngilga ham murojaat etadi:

*"Ey ko 'ngil, hech kim yor oldida holimni bayon etmaydi.
Ammo kimdan xafa bo 'layin,yor oldida kimim bor o 'zi?!" [4,1].
"Ey ko 'ngul , gar kimsa ahvolim demas yor ollida,
Xotirim kimdin malul o 'lsun, kimim bor ollida?! [5,1]*

Navoiy g'azallarining aksariyatida nido sa'natidan o'rinli foydalangan. Quyidagi go'zal baytda yorga ko'plab sifatlar bilan murojaat qilgan:

*"Mahvasho, sarvqado, lolaruxo, siymtano!
Chorakim qolmadi sabrim g 'ami hajringda yano." [5,2].
"Oyjamol sarviqomatim,lola yuzli kumushbadanim!
Yana hijroning g 'amida sabrim qolmadi,mening." [4,2]*

Quyidagi baytda soqiylarga murojaat qilgan Navoiy:

*Ey soqiy, mening qo 'limga ko 'zgudek jiloli qadah tut deydi: [4,3]
"Ko 'nglum istar yana maqsud jamoli aksin,
Soqiyo , tut qadahi oyinakirdor manga." [5,3].*

Nido sa'natidan Navoiy hazratlari ko'p bora o'zlariga nisbatan qo'llaganlar.

Navoiyning o'zlariga xitob qilishlari asosan g'azalning maqtasida kelgan.

Quyidagi baytlarda Alisher Navoiyning o'ziga murojaatlarini ko'rishimiz mumkin:

*"G 'arazim bir necha kun shohidu maydur,yo 'q esa,
Ey Navoiy,bu fano dayrida ne bor manga" [5,4].*

"Ey Navoiy, bir necha kunlik umr kechirishdan maqsad-berilgan sanoqli umrda shohid va maydan bahramand bo'lish,degan xulosa beriladi.Majoz tilida shohid - Haq taolo, may - ilohiy ma'rifat ekanligini bilamiz.Demak, bu o'tkinchi dunyoda yashashdan asl maqsad ilohiy ma'rifatni egallashdir. Ma'rifatsiz yashashdan ma'no yo'q,deydi Navoiy yana bir g'azalida

*G 'arazim bir necha kun shohidu maydur, yo 'q esa,
Ey Navoiy, bu fano dayrida ne bor manga?." [4,4].*

Xulosa qilib aytganda, Nido sa'nati she'riyatimizda keng foydalanib kelingan go'zal badiiy sa'natlardan biri.Undan ko'plab ijod ahli samarali foydalanib kelgan.Xususan, Navoiy bu sa'natga ko'plab g'azallarida murojaat qilgan. G'azal mulkning sultoni ko'plab she'riy sa'natlar qatori Nido sa'natining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.Bu sa'natning rang-barangliklarini adabiyot ixlosmandlariga yetkazib berishda xizmatlari beqiyosdir.Asrlar o'tsada Navoiy ijodida nido sa'natining takrorlanmas jilolaridan bahramand bo'laveramiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES): KITOBLAR

1. *D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva "Adabiyotshunoslik lug'ati". Toshkent.2013.*
2. *Namoz Rasulov. "She'r sa'natlari"*
3. *Alisher Navoiy "Topmadim" Toshkent 1988*
4. *Olimjon Davlatov "Ma'nolar xazinasini" Toshkent 2021.*
5. *Alisher Navoiy "G'aroyib us-sig'ar" devoni*